

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-6/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i> <i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i> <i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i> <i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i> <i>Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.</i> <i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i> <i>Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots.</i> <i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i> <i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i> <i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i> <i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i> <i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i> <i>Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.</i> <i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i> <i>Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.</i> <i>Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.</i> <i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i> <i>Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc</i> <i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i> <i>Qutliyev Uchqun Otaboyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i> <i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i> <i>Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i> <i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.</i> <i>Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD</i>	<i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i> <i>Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent</i> <i>Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.</i> <i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i> <i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i> <i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i> <i>Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i> <i>Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i> <i>Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i> <i>Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i> <i>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD</i> <i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i> <i>Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i> <i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i> <i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.</i> <i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i> <i>Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i> <i>Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.</i> <i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i> <i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i> <i>Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i> <i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i> <i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i> <i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.</i> <i>O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i> <i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i> <i>Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.</i> <i>Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.</i> <i>Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD</i> <i>Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent</i>
--	--

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№6/3 (127), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2025 y. – 216 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

Tilayev E. Ko'chmanchi aholining Buxoro amirligi va Xiva xonligining ichki siyosatiga ta'siri	133
To'xtayeva R.N. O'zbekistonda moliya siyosati tizimi tarixi	136
Utayeva F.X. Matbuot sahifalarida Buxoro to'qimachilik sanoati tarixining yoritilishi	138
Xamrayeva N.Sh. Abulg'ozixonning hayoti va siyosiy faoliyati	141
Xoliqulov Sh. Mustaqillik yillarida qashqadaryo viloyatidagi demografik jarayonlarni tarixiy tahlil	143
Xomidov S.S. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O'rta Osiyo va Usmonlilar aloqalari tahlili	147
Yakubova D.T. Sovet hokimiyatining "paxta ishi" qatag'oni siyosatining Surxondaryo viloyati hududida amalga oshirilishi va uning salbiy oqibatlari"	150
Yo'ldosheva Z.H. Axborot xavfsizligi va ommaviy axborot vositalari: Surxondaryo OAV misolida	153
Акбаров К. XX асрнинг 20- йилларида ер – сув ислоҳоти ва унинг салбий таъсирлари	155
Акбаров К. XX асрнинг 20- йилларида ўтказилган ер – сув ислоҳотининг деҳқон хўжаликларига таъсири	159
Бегалиева Д.Э. Хива саройида маҳрам лавозими	162
Елмуратов И.Г. Қорақалпоғистонда илм-фан юксалишининг тарихий аҳамияти	164
Жайнаров О.Х. Ўзбекистон ССР адвокатураси фаолияти тарихи манбашунослигига доир	170
Исмоилова У. Вклад узбекских женщин в войну в первые годы второй мировой войны	172
Кодиркулова С.Б. Женщины-переводчики лирики Алишера Навои	175
Мирзалиев У.Б. Мирзачўлнинг тарихий-демографик манзараси ва этноэкологик муаммолари	179
Сафаров Н. Ўзбекистонда ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликка қарши кураш: муаммо ва ечимлар	182
Топилдиева М.Р. Ёшларда ватанпарварлик туйғусини мустаҳкамлашнинг ижтимоий жиҳатлари	186
Тоштуров Ш.Э. Зарафшон воҳаси қадимги флора ва фаунасининг ноёб ёдгорликлари	189
Турекеев К.Ж. Обычаи и обряды каракалпаков, связанные с замужеством девушки	193
Убайдуллаева Г.Г. Тарихий шахс ва эстетик идеал муносабати	196
Ҳақбердиев Р.Ш. Совет иттифоқи даврида Ўзбекистонда тиббиёт кадрлари ва шифокорларнинг соғлиқни сақлаш тизимидаги ўрни	199

ARXITEKTURA FANLARI

Durdiyeva G.S., Zargarov A.K., Xudayberganov B.A., Raximov Z.X. Me'moriy yodgorliklarning yog'och qurilmalari bo'yicha o'tkazilgan texnik tadqiqotlar natijalari	202
Kaipbergenov A.E. Qoraqalpog'iston hududidan o'tgan Buyuk Ipak Yo'li boyida joylashgan me'moriy maskanlar	204
Motkurbonova Sh.A., Salimov O.M. Theory and practice in the restoration of historic city centers	209
Юсуфхужаев С.А., Нигматжонов Д.Г. Сейсмостойкость высотных зданий с применением гасителей колебаний. Международные достижения	212

boradagi ishlar ayniqsa Toshkent shahri va viloyati, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida qoniqarsiz bo'ldi. Bundan tashqari ta'lim va sog'liqni saqlash obyektlari qurilish ishlari ham rejaga muvofiq olib borilmadi.

O'zbekistonda 1960 yilda ko'plab korxonalar mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarmay keldi. Respublikadagi 56 ta korxonada mahsulot tannarxining qimmatlashishi, 79 ta korxonada jamg'arma to'plash rejasini bajarmaganligi qayd etiladi. 1959 – 1960 yillarda O'zbekistonda korxona va tashkilotlarning aylanma mablag'larida 758 mln rubl yetishmaydi[13]. respublika viloyatlari tumanlari moliya bo'limlarida moliya sohasida maxsus ma'lumotga ega kadrlar yetishmadi. Misol uchun, 1958 yili Buxoro viloyatining 15 ta tumanidan faqat 5 tasida 2 tadan, Andijon viloyati 18 tumanidan faqat 7 tasida 2 tadan mutaxassis faoliyat ko'rsatdi. 1958 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston moliya organlarida 2006 nafar xodim ishlab, shundan 1303 tasi yoki 63,6% i oliy va o'rta maxsus ma'lumotli edi. Respublika moliya xodimlari orasida kadrlar qo'nimsizligi yuqori darajada bo'ldi. 1955 yili Toshkent shahar moliya bo'limidan 12 nafar xodim, 1956 yili 10 nafar xodim[14], umuman, 1956-1957 yillarda respublika moliya organlaridan 736 nafar mutaxassis boshqa joyga o'tib ketdi[15].

1960 yil respublika moliya bo'limlariga 227 nafar mutaxassis ishchi kelgan bo'lsa, 246 nafar xodim ishdan bo'shatildi. Moliya xodimlari qo'nimsizligi yuqori darajada bo'ldi[16].

Xullas, Ikkinchi jahon urushidan keyingi og'ir yillarda moddiy tanqislik nihoyatda kuchaygan bir sharoitda qattiq markazlashgan boshqaruv tizimi yuqoridan rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullari eng samarali iqtisodiy omillardan keng foydalanish imkonini bermay keldi. Moliyaviy tanqislik kuchli bo'lsada, xo'jalik hisobi, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash, ijara prinsiplari kabi boshqa shakllardan foydalanildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қизил Ўзбекистон, 1948 йил 25 июнь, №125.
2. О'з МА, 837 – фонд, 33 – ro'yxat, 5731 – ish, 82 – 84 – varaqlar.
3. Қизил Ўзбекистон, 1948 йил 25 июнь.
4. О'зМА, 837 – фонд, 33 – ro'yxat, 2454 – ish, 185 – varaq.
5. О'зМА, 837 – фонд, 33 – ro'yxat, 2454 – ish, 185 – varaq.
6. О'зМА, 93 – фонд, 15 – ro'yxat, 1289 – ish, 49 – varaq.
7. О'зМА, 93 – фонд, 15 – ro'yxat, 1403 – ish, 11 – 26 – varaq.
8. О'зМА, 93 – фонд, 15 – ro'yxat, 1289 – ish, 74 – varaq.
9. О'з МА, 93 – фонд, 15 – ro'yxat, 1646 – ish, 33 – varaq.
10. О'зМА, 93 – фонд, 15 – ro'yxat, 1965 – ish, 12 – varaq.
11. Народное хозяйство Узбекской ССР // Ст. сб. – Т. 1959. – С.26.
12. Экономическая история Советского Узбекистана (1917 – 1965 гг.). – Т., 1966. – С.236.
13. Қизил Ўзбекистон, 1961 йил 6 январь.
14. О'зМА, 93 – фонд, 15 – ro'yxat, 1704 – ish, 2 – 4 – varaqlar.
15. О'зМА, 93 – фонд, 15 – ro'yxat, 1767 – ish, 34 – varaq.
16. О'зМА, 93 – фонд, 15 – ro'yxat, 1965 – ish, 20 – varaq.

UO'K 331 (346.146)

MATBUOT SAHIFALARIDA BUXORO TO'QIMACHILIK SANOATI TARIXINING YORITILISHI

F.X. Utayeva, PhD, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ipak, zardo'zlik, to'qimachilik va tikuvchilik sanoati tarixiga to'xtalib o'tilgan. Bu sohalar yengil sanoatning muhim tarmoqlari hisoblanadi. Fabrikalar barpo etish aholini ish bilan ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lgan. Ushbu maqolada aholining moddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan jihatlar, asosan, davriy nashrlarda chop etilgan maqolalarning ilmiy tahlili orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: To'qimachilik sanoati, mutaxassis, oilalar, aholi, ip-gazlama, fabrika, mexanika zavodi, ishlab chiqarish, ixtisoslik.

Аннотация. В данной статье рассматривается история шелководства, золотошвейного искусства, текстильной и швейной промышленности. Эти отрасли являются важными секторами легкой промышленности. Создание фабрик было одним из ключевых факторов обеспечения населения работой. В статье освещены аспекты,

направленные на удовлетворение материальных потребностей населения, главным образом, через научный анализ статей, опубликованных в периодических изданиях.

Ключевые слова: Текстильная промышленность, специалист, семьи, жители, прядение, фабрика, механический завод, производство, специализация.

Abstract. This article examines the history of silk production, gold embroidery, textile, and sewing industries. These sectors are important branches of the light industry. The establishment of factories was one of the key factors in providing employment for the population. The article highlights aspects aimed at meeting the material needs of the population, mainly through the scientific analysis of articles published in periodical editions.

Key words: Textile industry, specialist, families, population, spinning, factory, mechanical plant, production, specialization.

Kirish. Asrlar davomida ravnaq topib takomillashib kelgan xalq hunarmandchiligi asta-sekin yirik to'qimachilik sanoatiga aylanib borgan. Buxoroda to'qimachilik sanoatining tarixiy ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi, buxorolik to'quvchi ustalarning o'z tovarlari bilan mashhur bo'lganligi, "Zandanacha" matolarining tarixiga borib taqaladi. "Zandanacha" matolari tabiiyligi va pishiqligi bilan ajralib turganligidan Sharq va G'arb mamlakatlarida nom qozonib kelgan.[7] Otabobolarimizning to'qimachilik sohasidagi ish uslublari va tajribalari Buxoroda yengil sanoat tarmoqlari bo'lgan ipakchilik, zardo'zlik, to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik, charm va poyafzal ishlab chiqarish sanoatini rivojiga turtki bo'lgan.

Buxoro iqtisodining rivojlanishi amirlik davrida tadbirkorlik asosida, sovet davrida tadbirkorlik mol-mulkleri davlat ixtiyoriga o'tkazilgan holda kolxoz va sovxozlar tashkil etilib, yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanib rivoj topgan. O'zbekistonda yangi yerlarning o'zlashtirilishi, sanoatlashtirilishi, besh yillik rejalarning joriy etilishi, 1925-yilning dekabrda VKP(b)ning XIV s'eyzida "sotsialistik industrilashtirish" Buxoroda ipakchilik, zardo'zlik, trikotaj, tikuvchilik artellarining ishlab chiqarish faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan. 1930-yillarda Buxoroda 2457 ta mayda va yirik hunarmandchilik korxonalari 20 ta sanoat artellariga birlashtirilgan. "Ozod zamon", "Oktyabr 10 yilligi", "F.Xo'jayev", "8-mart", "Qizil sharq", "Namuna", "Quvvat", "Chkalov", "Qizil tikuvchi", "Stalin", "Indposhev"(oyoq kiyim tikkan), "Lenin"va boshqa artellar birin ketin birlashtirilib fabrikalar faoliyati tashkil topa boshlagan. [3]

Buxoroda tashkil etilgan sanoat korxonalarining kunlik tarixi matbuot sahifalarida yoritib borilgan. Birgina Buxoro shahrining o'zida 1960-yilda 30 mingga yaqin aholi gazeta va jurnallarga obuna bo'lgan bo'lsa, 1965-yilda obunachilar soni 32 ming 500 kishiga yetdgan. Matbuotda ishchilar, xotin-qizlarning yutuqlari yoritib borilgan.

Buxoroda 1927-yilda ishga tushgan Pillakashlik fabrikasining tarixiga to'xtalib o'tamiz. Buxorodagi sanoatining birinchisi bu Oktyabr X yilligi pillakashlik fabrikasidir. Bu fabrika mahsulot ishlab chiqarishda respublikada birinchi o'rinda turgan. Unda milliy kadrlar, xususan xotin-qizlardan iborat kadrlar ishlagan. 1925-yilda Buxoroning bo'sh yotgan yerida Pillakashlik fabrikasining dastlabki poydevori qurilgan. 1927-yil bino qurib bitkazilgan va fabrika ishga tushgan. Oktyabr inqilobining o'n yilligi munosabati bilan 1927- yil tashkil topgan fabrika "Oktyabr X yilligi" nomi bilan atalgan.[1] Dastlab fabrikada 200 kishi ishlagan. Ishchilarning 80 foizini ayollar tashkil etgan. 1930-yillarda Buxoro shahrida 55 ming kishi istiqomat qiladigan bo'lsa, aholining 1480 kishisi sanoat korxonalarida ishlagan.

1965-yil Buxoro pillakashlik fabrikasi ishchilari, xizmatchilari va boshqalardan 500 kishi qishloq xo'jaligi tehnikumida yig'ilishgan. Asosiy maqsad saylov oldi Buxoro xalq sudyaligiga nomzod S.H.Abdug'ulomov bilan uchrashish uchun to'planganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, fabrikada jamoatchilik ishlari va davlat tadbirlari ham o'tkazib turilgan va fabrika ishchilari faol ishtirok etganlar. Fabrika davlat siyosatlaridan ham xabardor qilib borilgan.[10,11]

Artellar bu aholining birgalikda xo'jalik faoliyati yuritish maqsadlarida tuzgan korxonasi bo'lib, mehnat jarayonlarini birgalikda bajargan. Artellarda yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tovar ishlab chiqaruvchilar hunarmandlar, kosiblar va boshqalar. O'zbekiston SSRda 1924-yildan keyin ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish asosida sotsialistik xo'jalik yuritish

yo'liga o'tkazilgan hunarmandchilik artellari kabi xo'jaliklar tuzilgan. Ularning ishlab chiqarish rejalari davlat xalq xo'jaligi rejasiga kiritilgan. 1980-yillar oxirida yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga doir qonunlar qabul qilingach, bunday artellar o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Trikotaj fabrikasining tarixiga to'xtalib o'tamiz. 1929-yildan Quvvat artelida bu turdagi mayda korxonalar birlashib trikotaj ishlab chiqarishni vujudga keltirilgan. Dastlab bu yerda paypoq, ip-gazlamalardan to'qilgan ro'mollar, jemperlardan sodda uskunali mashinalarda ishlab chiqarila boshlaydi. 1949-yilga kelib Quybishev nomli hamda Tel'man nomli artellar birlashtiriladi va yirik artelga aylantiriladi. Bu artel Tel'man nomi bilan ataladigan bo'ldi. Buxoro viloyatida yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 1957-yilda 1913-yildagiga nisbatan ming baravar oshib, deyarli 2 milliard so'mga yetgan. Paxta maydoni 1957-yilda 1913-yildagiga qaraganda 550 foizga yetgan, shu davrda paxta yetishtirish 6 baravardan ziyodroq ko'paygan.

1963- yilda esa uning bazasida Buxoro trikotaj fabrikasi tashkil etilgan. Xitoy Xalq Respublikasining Moskvaliklar va Leningradliklar bilan hamkorligidan keyin, Buxoro shahar sanoat korxonalari ham Xitoy davlati bilan hamkorlik olib borgan.[6]

1971-1972-yillarda fabrika injener-texnik xodimlari va ishchilarning malakasini oshirish borasida fabrikada tashkil qilingan malaka oshirish kurslarida 84 kishi bitirgan. Bu esa mahsulot sifatini yaxshilashga samarali tasir ko'rsatgan.[8]

Fabrikadagi 1972-yillarda 617 ta ayoldan 583 tasi bevosita ishlab chiqarishda band bo'lib, 32 ta ayol agitator, 4 ta ayol kishi siyosiy axborotchi va 37 ta qiz-juvon siyosiy tashkilotchilik vazifasini sidqidildan bajargan.[4] 1971-1972-yillar davomida ilg'or ishchilarga mukofot berish uchun 121 ming so'm pul ajratilgan. Fabrika ishchilarining o'rtacha ish haqi 88 so'mdan 94 so'mga yetgan.[1,3]

Buxorodagi "Partiya XVI syezdi" tikuvchilik fabrikasi tarixiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ishlab chiqarishda yangi texnikani joriy etishga katta etibor berilgan. 1960-yilning dastlabki ikki oyida 4 ta yangi mashina olingan. Bu mashinalardan ikkitasida ip o'tkazish jarayoni bajarilgan. Ilgari bu jarayon qo'lda bajarilgan. Bu mashinaning ishga tushirilishi mahsulot sifatini yaxshilab, mehnat unumdorligini oshirgan. Ilgarigi mashinalarda 2000 foyda qilinsa, bu mashinada 5000 foiz foyda qilingan. Bu esa mehnat unumdorligini yanada oshiradi. [11]

"Partiya XVI syezdi" tikuvchilik fabrikasida har hafta dushanba kuni "Sifat kuni" e'lon qilingan. Hafta davomida mahsulot sifatini tekshirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlarning natijalari injener-texnik xodimlar ishtirokida muhokama qilingan va ish yakunlariga qarab, yaxshi natijalarga erishgan sex va bo'limlarga ko'chma Qizil bayroq topshirilgan.[12]

Fabrika direktorining muxbirlarga bergan javobida paxta yig'im terimi vaqtida fabrika Komsomol tashkilotining kotibi Mag'diya To'xtamisheva har kuni 120-130 kilogramm paxta tergan. Uning dugonalari S.Jo'rayeva, M.Karimova, N.Martishovalar ham mana shu ko'rsatgich atrofida paxta terganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, jamoat ishlarida ham fabrika ishchilari faol qatnashib, Buxoro oq oltini bo'lgan paxtani terib viloyat iqtisodiyotni o'sishiga hissa qo'shganlar.

Buxoro zardo'zlik arteli 1930-yilgacha yakka tartibda faoliyat yuritgan. 1930-yildan Buxoro Zardo'zlik arteli uyushgan holda faoliyat yurita boshlagan. 1933- yil 17-avgustida hunarmandchilik ishlab chiqarish arteli Nizomi tasdiqlanib, uy sharoitida zardo'zlik bilan shug'ullangan hunarmandlar uyushmaga birlashishgan va 67 zardo'z usta va ishchi kuchidan iborat bu artelda 50 ta yog'och dastgohi hamda 12 ta eskirgan tikuv mashinasi bilan ishni boshlagan. Xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarga sifatli mahsulotlarni tayyorlash maqsadida yuqori malakali 10-15 mutaxassislardan iborat doimiy maxsus brigadalar tuzilgan. 1920-yilgacha Buxoro amirining zardo'zlik ustaxonasida 300 ta erkak shug'ullangan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin Buxoro zardo'zlik artelida 80 foiz ayollar ishlar edi. 1929-yillarda zardo'zlik artelida 20 kishi ishlagan bo'lsa. 1972-yil zardo'zlik fabrikasida 675 kishi zardo'zlik kasbini sharaflab ishlagan. Bu hunar haqiqatdan ham zardo'zlarning baxt va farovonlik manbai bo'lib kelgan.[9]

Buxorolik zargar Muyassar Temirova kasb sirlarini puxta egallashga, zardo'zlik san'atini rivojlantirishga intilgan. U usta maqomiga yetishguncha ko'p yillar mehnat qilgan. 1978- yil O'zbekiston Xalq Rassomi unvonini olgan. Muyassar Temirova 54 yoshida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 4 yilligi munosabati bilan 1995-yil O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, ko'p millatli Buxoro xalqi ipakchilik, zardo'zlik, trikotaj, tikuvchilik sanoati korxonasida ishlab ish tajribasini o'rttirgan. Bu sanoat korxonalari homiyligida ko'pgina bilim yurtlari, maktablar, tibbiyot maskanlari va madaniy maskanlar qurilgan. Kombinat ishchilari ish tajribasini o'rttirish uchun respublikaning turli viloyatlaridagi to'qimachilik kombinatlariga amaliyotga yuborilgan. Hattoki, yozgi uch oylik ta'tilda talabalar va maktabning yuqori sinf o'quvchilari fabrikalarda ishlab tajriba o'rttirib o'z mehnatlari bilan Buxoro to'qimachilik sanoatini salmog'ini oshirishga hissa qo'shgan. Buxoro hududida yetishtirilgan paxtadan tayyorlangan gazlamalar, ipak matolar sifati yuqoriligi bilan ajralib turganligi sababli, yengil sanoatga ehtiyoj sezilgan. Aholi uchun juda katta imkoniyatlar yaratilishida o'rni ahamiyatli bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Воҳидова Х.// Саноатимиз қалдирғочлари Бухоро ҳақиқати 1966 йил, 28 декабрь
2. Воҳидова Х.// Партия турмуши. Бухоро ҳақиқати.,1972 йил,11 июнь
3. Ваҳобов Р.(Бухоро трикотаж фабрикасининг директори) // Бухоро трикотаж фабрикасининг ташкил топганига 60 йил тўлди. Бухоро ҳақиқати, 1990 йил, 26 май (№ 101.(17.882)
4. Климов И.// Фабрика киз-жувонлари. Бухоро ҳақиқати.,1972 йил,2 июнь
5. Наимов Н. // Фабрика чеварлари Бухоро ҳақиқати, 1972 йил, 20 октябрь. № 206 (13.056).
6. Совет Делегацияси Пекинда // Бухоро ҳақиқати, 1969 йил 10 февраль
7. Рахимов Н.К, Раҳимова М.Н. Зандани ва “Занданийчи” тарихидан лавҳалар. – Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2021. – Б. 76.
8. Рахматова С.// Аҳдига вафодорлар. Бухоро ҳақиқати,1972 йил,11 октябрь.
9. Саъдуллаев А. // Зардўзлар устози Бухоро ҳақиқати, 1972 йил 8 декабрь № 239.
10. Фабрикада жамоатчилик ишлари // Бухоро ҳақиқати, 1965 йил 14 декабрь.
11. Гаффорова М.// Фабрика киз-жувонлари Бухоро ҳақиқати 1976 йил 26 декабрь,№251 (13.101)
12. Шехов Х.// Коллектив Шартнома “Партия XVI съезди” тикувчилик фабрикаси Бухоро ҳақиқати, 1964 йил

UO'K 908

ABULG'OZIXONNING HAYOTI VA SIYOSIY FAOLIYATI (XIVA XONLIGI XVII ASRNING IKKINCHI YARMIGACHA BO'LGAN DAVRDA) *N.Sh.Xamrayeva, katta o'qituvchi, Osiyo texnologiyalari universiteti, Buxoro*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abulg'oz Bahodirxonning Xiva xonligining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotida tutgan o'rni, ichki siyosatda o'zaro ichki nizolarni bartaraf etish, tashqi siyosatda Buxoro amirligi bilan olib borgan harbiy harakatlari yoritib berilgan

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Abulg'oz Bahodirxon, etnik guruhlar, ichki nizolar, qalmiqlar, Buxoro amirligi, harbiy yurishlar

Аннотация. В этой статье описывается роль Абулгази Баходирхана в социальной, политической и экономической жизни Хивинского ханства, устранение внутренних конфликтов во внутренней политике, его военные действия с Бухарским эмиратом во внешней политике.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Абулгази Баходирхан, этнические группы, внутренние конфликты, калмыки, Бухарский эмират, военные кампании

Abstract. This article describes the role of Abulgazi Bakhodir Khan in the social, political and economic life of the Khiva Khanate, the elimination of internal conflicts in domestic politics, his military operations with the Bukhara emirate in foreign policy

Keywords: Khiva Khanate, Abulgazi Bakhodir Khan, ethnic groups, internal conflicts, Kalmyks, Bukhara emirate, military campaigns

Abulg'oz Bahodirxon ibn Arabmuhammadxon olim, tarixnavis, adib, tabib, shoir va davlat arbobi sifatida jahon ilm-fani, ayniqsa o'zbek xalqi madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan shaxslardan biridir. Abulg'oz Bahodirxon Xorazm hukmdori Arab Muxammadxonning to'rtinchi o'g'li bo'lib, o'zining “Shajarayi turk” asarida tarjimai holiga oid atroflicha ma'lumotlarni keltirgan. Abulg'ozixon haqidagi Munis va Ogahiy tomonidan berilgan ba'zi biografik ma'lumotlar esa chamasi “Shajarayi turk”dan olingan[1:7].